

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI VA TIZIM  
TASHKILOTLARINING ISHLAB CHIQARISH FAOLIYATI TO'G'RISIDA  
MA'LUMOT  
(2023-yil yanvar-mart)**

**STANDARTLAR VA O'LCHOVLAR YAGONA BIRLIKDA BO'LISHINI  
TA'MINLASH BO'YICHA DAVLAT NAZORATI SOHASIDA**

Joriy yil yanvar-mart holatiga 27 ta subyektlarda (import, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish) davlat nazorati o'tkazildi. Natijada tekshirilgan 43 turdag'i mahsulotdan 42 turdag'i mahsulotlar texnik reglament talablariga nomuvofiqligi, 2745 ta o'lhash vositalari va sinov uskunalaridan 2450 tasi (89 %) qiyoslanmagan holda foydalanilganligi aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan 25 nafar mas'ul shaxslarga nisbatan ma'muriy choralar ko'rildi.

Shuningdek, joriy yilning yanvar-mart holatiga 734 ta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazilgan. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Navoiy, Xorazm, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan 314 nafar tadbirkorlar uchun soha yuzasidan seminar o'tkazildi. Seminarda xalqaro talablarni joriy etish, eksport qilish istiqbollari, mahsulotlarni sifatini oshirish va sifatsiz mahsulotlar bilan kurash yo'naliishlarida qilingan ishlar va yangiliklar, yaratilgan qulaylik tushuntirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan kelishilgan holda 420 ta tadbirkorlik subyektlariga sohaga oid qonunchilik talablariga qat'iy rivoja qilish bo'yicha ko'rsatma xatlar va tarqatma materiallar yuborildi.

**O'LHASHLAR YAGONALIGINI TA'MINLASH SOHASIDA**

Joriy yil yanvar-mart holatiga 123 007 dona o'lhash vositalari (shulardan 1 267 dona o'lhash vositasi yaroqsiz deb topilgan) metrologik tekshiruvdan o'tkazilgan.

Ko'rsatilgan metrologik xizmatlardan 107 359 dona qiyoslash, 11 907 dona attestatsiya va 3 741 dona kalibrlash ishlarini tashkil etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning 49 428 ta murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalarini (hisoblagichlarni) qiyoslash ishlari amalga oshirilgan.

O'lhash vositalarining metrologik tekshiruvi natijalari va tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha 15 dona sertifikatlari rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, turini tasdiqlash maqsadida 7 turdag'i o'lhash vositalari davlat sinovlaridan o'tkazilgan.

## **MUVOFIQLIKNI BAHOLASH SOHASIDA**

O'zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida yanvar-mart oylarida 36 248 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan, shundan 446 ta muvofiqlik sertifikati 1 kalendar yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirilgan, seriyali ishlab chiqarishga 1 355 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan.

Shuningdek, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tizim tashkiloti "UzTest" DM tomonidan 9 619 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirilgan, shundan 76 ta muvofiqlik sertifikati 1 kalendar yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirilgan, 463 ta tadbirkorlik subyektlariga seriyali ishlab chiqarishga sertifikatlar rasmiylashtirib berilgan.

## **MENEJMENT TIZIMLARINI JORIY ETISH SOHASIDA**

Joriy yil yanvar-mart holatiga 385 ta korxonada sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan: sifat menejment tizimlari (ISO 9001) bo'yicha 302 ta; ekologik menejment tizimlari bo'yicha (ISO 14001) 207 ta; oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari (ISO 22000) bo'yicha 17 ta; energetik menejment tizimlari (ISO 50001) 2 ta; kasb-hunar, sog'lijni saqlash va xavfsizlik menejment (ISO 45001) bo'yicha 212 ta va boshqa 6 ta menejment tizimlari.

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish 19 ta akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 6 ta korxonada "OEKO-TEX" xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

## **MAHSULOTLARNI EKSPORT QILISHGA KO'MAKLASHISH**

Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylari mobaynida korxonalarga 437 ta, shundan standartlashtirish – 115 ta, metrologiya – 47 ta, sertifikatlashtirish – 99 ta, sifat menejment tizimlari masalalari – 93 ta, qadoqlash va yorliqlash – 35 ta va boshqa masalalarda 48 ta konsultativ xizmatlar ko'rsatildi 12 marotaba seminar-treninglar, mahalliy gazetalarda 24 ta maqolalar chop etildi va 9 marotaba radio va TVda chiqishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda, hududlarda joylashgan 119 ta tumandagi 358 ta korxonalarining 63 turdag'i mahsulotlarini dunyoning 29 ta mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.